Xojakbar Zaynabidinov	
BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	950
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
Savurbayev Zafar Abdumuminovich	
INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNING BOSHQARUVI	960
D. G. Bazarov	
YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH	966
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR	971
Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	976
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	981
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	



PUL AYLANMASINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI.....	987
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
MARKETING VA TOVAR STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	993
Ibadullayeva Sevara Allashukurovna, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
PILLACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA DAVLAT KO'MAGIGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR	998
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'YI INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEXANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ.....	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djumaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	



KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI

Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich

Andijon davlat texnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti

Email: anafiyayev79@mail.ru

Annotatsiya. Respublika iqtisodiyotining muhim drayveri sifatida qarayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining barqaror rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari keng miqyosda tahlil qilindi. Mazkur muammo bo'yicha xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlari, fikr va yondashuvlari atroficha o'rganilib, ular orasidagi turli qarashlar, shuningdek umumiy jihatlar o'zaro taqqoslandi. Natijada mualliflar tomonidan xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, kichik biznes, tizimli tahlil, tadbirkorlik subyektlari, xavfsizlikka tahdid, firibgarlik.

Abstract. The sustainable development of small business and private entrepreneurship, which is considered an important driver of the republic's economy, is closely related to its economic security. In this regard, the artful article provides a comprehensive analysis of the issues of economic security of small business and private entrepreneurship. Scientific studies, opinions and positions of foreign and domestic scientists on this issue are studied in detail, a comparison is made of the differences between them and general views. As a result, the authors have developed conclusions and recommendations.

Key words: economic security, small business, systematic analysis, business entities, security threat, extortion.

Аннотация. Устойчивое развитие малого бизнеса и частного предпринимательства, рассматриваемое как важный драйвер экономики нашей Республики, тесно связано с ее экономической безопасностью. С этой точки зрения в данной статье проведен широкомасштабный анализ вопросов обеспечения экономической безопасности деятельности малого бизнеса и частного предпринимательства. Подробно изучены научные исследования, мнения и отношения зарубежных и отечественных ученых по данной проблеме, сопоставлены различные различия между ними, а также общие мнения. В результате авторами были выработаны выводы и предложения.

Ключевые слова: экономическая безопасность, малый бизнес, систематический анализ, субъекты предпринимательства, угроза безопасности, вымогательство.

KIRISH

Jahon xo'jaligi tizimida globallashuv va xalqaro integratsiya jarayonlari kuchayib, ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi chuqurlashib borayotgan bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyot rivojlanishida, makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Shu munosabat bilan ilmiy va iqtisodiy adabiyotlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati, mezonlari, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi hamda moliyalashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy voqea va hodisalarni o'rganish uni nazariy jihatdan asoslashdan boshlanadi, amaliyot esa unga tegishli o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritadi. Shu nuqtayi nazardan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi muammosini tadqiq etishda, avvalo, uning mohiyati, sifat va miqdoriy mezonlarini o'rganish zarur.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ingliz tilidagi adabiyotlarda “small business”, “private entrepreneurship” deb yuritiladi. Ma'lumki, har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy bo'g'in hamda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy



tadbirkorlik faoliyati davlat tomonidan muntazam qo'llab-quvvatlanadi. Bozor iqtisodiyotining jahon miqyosida jadal sur'atlarda rivojlanib borishi tabiiy ravishda tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi muammolarni yuzaga keltiradi. Muayyan iqtisodiy xavf-hatarlar o'z vaqtida bartaraf etilmasa, har qanday rivojlanayotgan biznesning qisqa muddatda inqirozga yuz tutishi tabiiy hisoblanadi [1].

Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari asrida istalgan sohada axborot xavfsizligini ta'minlash muhim bo'lgani kabi, biznes egalarga o'z faoliyatini rivojlantirish uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash ham alohida ahamiyatga ega. Mamlakat YAIMining asosiy qismini tashkil etuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, shu asosda sohani rivojlantirish maqsadida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun sog'lom raqobat va rivojlangan ishbilarmonlik infratuzilmasini yaratish muhim sanaladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5490-son'li Farmoni [2] davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'lida muhim qadam bo'ldi. Shu nuqtayi nazardan, jahon moliyaviy inqirozi davrida rivojlangan davlatlar ayni sohada yo'l qo'ygan xatolaridan xulosa chiqargan holda rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotining asosiy drayverlari iqtisodiy jihatdan himoyalangan bo'lishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soha olimlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligiga turlicha ta'rif berganlar. Xususan, Yu. Kochevrin fikricha, kichik va o'rta ishlab chiqarishning beqarorligi uning asosiy sifat mezonini hisoblanadi: "Kichik va o'rta ishlab chiqarishning asosiy xususiyati uning beqarorligidir. Bu beqarorlik ayniqsa kapitalizmning monopolistik bosqichida kuchayadi". Ko'rinib turibdiki, ushbu ta'rif o'sha davrdagi iqtisodiy-siyosiy qarashlar ta'sirida shakllangan. Xususan, olimlar O. Arefieva va T. Kuzenko tadbirkorlik sohasida iqtisodiy xavfsizlik tushunchasini korxona resurslaridan samarali foydalanish, tashqi va ichki tahdidlarning oldini olish, uzoq muddat bozorda faoliyat yuritish va barqaror rivojlanishni ta'minlaydigan bozor potentsialidan kelib chiqqan holda belgilaydilar [5].

Rossiya Federatsiyasi va Yevropa Ittifoqida iqtisodiy xavfsizlik bo'yicha tanilgan professor R. Smelik esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini "tadbirkorlikda muammo va tahdidlarning oldini olish hamda barqaror ishlashni ta'minlash uchun resurslardan samarali foydalanish holati" sifatida ta'riflaydi. U fikrini davom ettirgan holda: "Tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikning asosiy maqsadi uning barqaror va maksimal darajada samarali ishlashini ta'minlash, kelajakda biznesning rivojlanishi va o'sishi uchun yuqori salohiyat yaratishdir", — deya xulosa qiladi [6].

L. Yurovich kompaniyaning iqtisodiy xavfsizligini korxonani tashqi va ichki muhitning salbiy ta'siridan himoya qilish, mavjud tahdidlarni tezda bartaraf etish yoki korxona uchun salbiy oqibatlarisiz tashqi sharoitlarga moslashish qobiliyati sifatida izohlaydi [7].

N. Kapustin va M. Bendikovlarning ilmiy ishlariga murojaat qilinsa, N. Kapustin tadbirkorlikning iqtisodiy xavfsizligini — moliyaviy mustaqillik, barqarorlik va beqarorlashtiruvchi omillar ta'sirida ham taraqqiyotga erishishni ta'minlaydigan omillar yig'indisi sifatida talqin qiladi [8]. M. Bendikov esa tadbirkorlikning iqtisodiy xavfsizligi uning ilmiy-texnik, ishlab chiqarish va kadrlar salohiyatini bevosita va bilvosita tahdidlardan himoya qilishdan iborat ekanini ta'kidlaydi [9]. Iqtisod fanlari doktori, professor Abulqosimovning fikricha, "Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligi — tadbirkorlik subyekti tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy va muhandislik-texnik tavsifdagi chora-tadbirlar tizimi orqali hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarining ichki va tashqi xavf-hatarlaridan himoyalanganlik holatidir" [10]. Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent P. Xoshimov "Tadbirkorlik faoliyati xavfsizligi deganda, tadbirkorlik faoliyati subyekti amal qiladigan barcha bosqichlarda iqtisodiy, huquqiy va boshqa salbiy oqibatlarga olib keluvchi ichki va tashqi tahdidlardan muhofaza qilingan holat tushuniladi", — deb ta'kidlaydi [11].

Shundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy xavfsizligiga korxonaning huquqiy va iqtisodiy munosabatlari, tashkiliy aloqalari hamda moddiy va intellektual resurslari sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mazkur omillar uning faoliyat barqarorligi, moliyaviy barqarorlik, tijoriy muvaffaqiyat va samarali ilmiy-texnik rivojlanishni ta'minlaydi.

Shaxs iqtisodiy xavfsizligining tarkibiy elementlari va ularga xavf soluvchi tahdidlarning keng qamrovli klassifikatsiyasi O. A. Stepicheva, V. V. Chernova va M. A. Kotelnikovlarning ilmiy ishlarida ishlab chiqilgan. Ular shaxsning iqtisodiy xavfsizligini oziq-ovqat va uy-joy bilan ta'minlanish, aholining takror ishlab chiqarilishi, huquqbuzarliklar, sog'liqni saqlash, ekologiya, mehnat munosabatlari, madaniyat va ta'lim, axborot bilan ta'minlanish, daromadlar bo'yicha tabaqalanish va moliyaviy xavfsizlik sohalari orqali tavsiflagan hamda ushbu sohalarga xavf soluvchi omillarni ko'rsatib o'tganlar [12].

1 <https://lex.uz/ru/docs/-3839746>



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani yoritishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezident asarlari, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalaridagi taniqli olimlarning ilmiy ishlarining mazmuni o'rganildi. Mazkur sektorni rivojlantirish va ishbilarmonlik muhitini qulaylashtiruvchi ko'rsatkichlar statistik tahlil qilindi. Tadqiqotda mavzuga oid statistik ma'lumotlar va nazariy manbalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Mavzuni yoritishda ilmiy-texnikaviy axborot manbalari — darsliklar, o'quv qo'llanmalar, xorijiy adabiyotlar, davriy matbuot, tadqiqot hisobotlari, ilmiy-amaliy anjuman to'plamlari hamda internet manbalaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi uning farovonligi va boyligi darajasidan, jamiyat va davlat miqyosida tutgan o'rnidan qat'i nazar, har bir inson hayot faoliyatining muhim tarkibiy qismidir. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi — bu shaxsning ijtimoiy jihatdan rivojlanishi, kamol topishi va hayotiy manfaatlarining kafolatli himoyalanihini ta'minlaydigan holatdir. Shu bois shaxsning iqtisodiy xavfsizligi uning hayotdagi muvaffaqiyati, farovonlikka erishganligi va jamiyatda barqaror mavqega ega ekanining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shaxs iqtisodiy xavfsizligining obyektlari — shaxsning o'zi, uning huquq va burchlari, ayniqsa iqtisodiy sohada manfaatlaridir. Shaxs iqtisodiy xavfsizligining subyektlari esa quyidagilardan iborat: shaxsning o'zi. Chunki inson hayot faoliyatiga ta'sir etuvchi ko'plab tahdidlar subyektiv tavsifga ega bo'lib, ularni shaxsning o'zi bartaraf etishi mumkin [3].

Jamiyatning ijtimoiy institutlari shaxsning ayrim huquqlarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari aralashuviz ham kafolatli amalga oshirilishini ta'minlay oladi. Davlat esa o'z fuqarolarini mamlakat hududida hamda undan tashqarida himoya qilishni kafolatlaydi. Shaxs manfaatlari va xavfsizligiga tahdidlar ko'p qirrali bo'lib, ular quyidagi umumiy guruhlariga bo'linadi [4]:

- shaxsning o'z oldiga noto'g'ri maqsadlar qo'yishi yoki ularni belgilashda xato qilish ehtimoli;
- tashqi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlardan kelib chiqadigan tahdidlar;
- ichki ijtimoiy-iqtisodiy tizimda yuzaga keladigan tahdidlar;
- tabiiy tavsifdagi tahdidlar.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi va ushbu sektorni davlat tomonidan tartibga solish jarayoni izchil faollashmoqda. Mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitining kengayishi kichik biznes subyektlarining rag'bat asosida faoliyat yuritishini ta'minlamoqda. Buning natijasida iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida kichik biznes subyektlari yildan-yilga son jihatidan ortib bormoqda. Qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga keng imkoniyatlar yaratish, ularning erkin faoliyatini ta'minlash hamda amalga oshirilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish va liberallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar o'z aksini topmoqda [13].

AQSHda kichik biznes ishlari bo'yicha ma'muriyat tomonidan ishlab chiqilgan miqdoriy mezonlarga ko'ra, neftni qayta ishlash sohasida 1 500 nafar xodimgacha bo'lgan korxonalar kichik biznes sifatida tasniflanadi.

Mualliflarning fikricha, oziq-ovqat ta'minotidagi shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha iste'molning me'yoriy miqdorga mos kelmasligi hamda aholining katta qismining iqtisodiy imkoniyati cheklanganligi tufayli oziq-ovqat mahsulotlariga yetarlicha ega bo'la olmaslik xavfi tahdid soladi. Aholining takror ishlab chiqarish jarayonidagi xavfsizlikka esa aholining umumiy sonining kamayishi, boqimandalar ulushining ortishi, ishlab chiqarishda band bo'lmaganlar sonining ko'payishi hamda ajralishlar, abortlar va zararli odatlarga ruju qo'nganlar sonining ortishi tahdidlar sifatida qayd etiladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston bozor iqtisodiyotining asosiy elementi bo'lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlovchi barqaror qonunchilik bazasini shakllantirdi. O'rta mulkdorlar sinfini yaratish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar shakllantirildi. Natijada so'nggi o'n yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes ulushi 31,1 foizdan 52,5 foizga o'sgan, ushbu sohada bandlik darajasi esa iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholining 49,7 foizidan 74,5 foizigacha oshgan. Aholi daromadlarining 47 foizdan ziyodi tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar hissasiga to'g'ri keladi [15].

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi hamda bu jarayon yanada ochiq tus oldi. Ro'yxatdan o'tish uchun davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi. Ishchilarning yillik o'rtacha soni 100 kishigacha ko'paytirilgan kichik korxonalar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati ham sezilarli darajada kengaytirildi. Kichik biznes subyektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng jalb qilish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etildi.



Shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar uni tashkil etuvchi komponentlar va shaxs iqtisodiy xavfsizligiga oid xavf omillari sifatida ikki guruhga ajratildi [16].

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi natijasida ish o'rinlari yaratish va aholining barqaror bandligini ta'minlash masalalariga yechim topish imkoniyati mavjud. O'zbekistonda davlat boshqaruvi organlari tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash choralari ko'rmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning eng ta'sirchan vositalaridan biri soha infratuzilmasini yanada rivojlantirishdir. Bu borada asosiy infratuzilmalar O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi hamda O'zbekiston Fermerlari kengashidir [17].

Kichik biznes subyektlari soliqqa tortilishda ham muayyan imtiyozlarga ega. Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyot, siyosat va jamiyatdagi dinamik o'zgarishlarga moslashish uchun turli tahdidlardan himoyalanişga ehtiyoj sezadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ochiq tizim sifatida beqaror tashqi muhitda innovatsion yondashuvlar, faol rivojlanish va yuqori raqobatbardoshlikni talab qiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyekti iqtisodiy xavfsizligining yetarli darajada ta'minlanishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun ham muhim omildir. Yaqin yillargacha ushbu subyektlarga nisbatan asosli va asossiz tekshiruvlar ularning iqtisodiy xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan holatlar mavjud edi.

Shaxsning o'ziga bog'liq bo'lgan tahdidlar ichki tahdidlar hisoblanadi. Bunday tahdidlarga noto'g'ri maqsad qo'yish, bilim va kasb-malaka darajasining yetarli emasligi, past daromadli ishda ishlash, bozordagi raqobatda muvaffaqiyatsizlikka uchrash, to'lov qobiliyatining pastligi, tug'ma yoki orttirilgan nogironlik, jismoniy va aqliy imkoniyatlarning chegaralanganligi, qarilik, sog'liq bilan bog'liq holatlar tufayli mehnat qobiliyatining vaqtinchalik yoki to'liq yo'qolishi kiradi. Shuningdek, shaxsning qat'i'yatsizlik, sabrsizlik, shoshqaloqlik kabi individual xususiyatlari ham xavf omili bo'lishi mumkin. Insonning zararli odatlarga moyilligi ham iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [18].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali shaxs xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish va ularning ta'sirini kamaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- iqtisodiyotni rivojlantirish va erkinlashtirish borasida olib borilayotgan ishlarni izchil davom ettirish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish;
- fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy erkinliklari va huquqlarini ta'minlashning samarali mexanizmlarini yaratish;
- ishsizlikning oldini olish, yangi ish o'rinlarini yaratish va mehnatga layoqatli aholining bandlik darajasini oshirish bo'yicha tizimli choralar ko'rish;
- kambag'allikka olib keluvchi xavf omillarini baholash, aholining ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish;
- uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish, sog'lom jamiyat tamoyillarini mustahkamlash;
- insonning faollik, bag'rikenglik, qat'iylilik, chidamlilik, iroda va mas'uliyat kabi ijobiy sifatlarini shakllantirishni qo'llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Vazirlar Mahkamasining 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dastur ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. Abulqosimov Q.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. – T.: Akademiya, 2012. – 94–95-b.
3. Алабичева М.А. Экономическая безопасность личности в условиях экономической стратификации российского общества. // Социально-экономические явления и процессы, 2014, №9, Т. 9. – С. 13–18.
4. Гайдар А.П. Безопасность жизнедеятельности. Учебное пособие. Источник: <http://www.newsocio.ru/nspgs-333-1.html>
5. Гуреева М.А. Экономическая безопасность личности в современной России. // Международный научный журнал «Символ науки», 2016, №4. – С. 57–63.
6. Степичева О.А., Чернова В.В., Котельникова М.А. Целевая функция и угрозы экономической безопасности личности. // Социально-экономические явления и процессы, 2015, №2, Т. 10. – С. 83–89.
7. Экономическая безопасность личности. Источник: <http://newinspire.ru/1/2/25/1071-ekonomicheskaya-bezopasnost-lichnosti.html>
8. Захаров В. Промышленный шпионаж в российском интерьере. // Служба кадров, 1998, №2. – С. 13–17.
9. Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М.: РАГС, 2001.
10. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990–2010-yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011–2015-yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. – T.: O'zbekiston, 2011.
11. O'zbekiston iqtisodiyoti: axborot-tahliliy byulleteni. 2016-yil yanvar–dekabr. – T.: ITM, 2017.
12. Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М.: Лед-во ПАГС, 2021. – 257-с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>